



Qum boʻronlarini taʼsirini kamaytirish maqsadida "Qattaqum" choʻlida saksovul ekish aksiyasi boʻlib oʻtmoqda





Vohamizning janubiy tumanlari Sherobod, Muzrabot, Angor va Termiz, shuningdek, Termiz shahrining iqlimida barcha fasllarda kuzatiladigan kuchli shamollar hamda chang hodisalari asosan shimol va gʻarb tomondan, jumladan, Eron, Turkmaniston va qoʻshni Afgʻoniston hududlaridan kirib keladi.



Mutaxassislarga koʻra, viloyatda yil davomida 151 kungacha shamol va chang toʻzonlari kuzatilmoqda. Natijada havo dim va chang boʻlib, qishloq xoʻjaligi, inson salomatligi va atrof-muhitning musaffoligiga jiddiy xavf tugʻdirmoqda.

Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifida ushbu muammoga ham eʼtibor qaratilib, iqlim oʻzgarishi salbiy oqibatlarining oldini olish va chang toʻzonning tasirini kamaytirish maqsadida choʻl zonalarida saksovulzorlarni kengaytirish boʻyicha vazifalar belgilab berilgan edi. Hozirda bu borada amaliy ishlar, “yashil kamar”lar tashkil etish loyihasi boshlab yuborilgan.





Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov boshchiligida mazkur loyihaning navbatdagi bosqichi doirasida Termiz va Angor tumanlari tutashgan "Kattaqum" massivida saksovul ko'chatlari ekish va urug'larini sepish ishlariga start berildi. Tadbir doirasida viloyatimizning har bir hududida ming gektardan jami 15 ming gektar maydonga Qoraqalpog'istondan keltirilgan 100 ming tup saksovul ko'chatlari va 80 tonna urug' sepilishi maqsad qilingan.

Ekologik tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, yoshlar hamda ko'ngilli ekologiya jonkuyarlari faol ishtirok etishmoqda.